

**SIFAT SO‘Z TURKUMINI O‘TISHDA INTERFAOL METODLARDAN  
FOYDALANISH****Tursunov Jahongir Panjixonovich***Termiz davlat pedagogika instituti**Boshlang‘ich ta‘lim kafedrası o‘qituvchisi***Cho‘timurodova Nafisa***Termiz davlat pedagogika instituti talabasi***Avazova Dilshoda***Termiz davlat pedagogika instituti talabasi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada sifat so‘z turkumini o‘rgatishda zamonaviy, innovatsion va interaktiv metodlardan foydalanish yo‘llari yoritilgan. Pedagogik faoliyatda o‘quvchining ijodiy fikrlashi, estetik dunyoqarashi va nutqiy boyligini rivojlantirishda sifat so‘z turkumining ahamiyati muhim hisoblanadi. Maqolada darslarni qiziqarli tashkil etish, STEAM yondashuvi, raqamli texnologiyalar va o‘yinli metodlardan foydalanish tajribalari keng tahlil etilgan.

**Kalit so‘zlar:** sifat, zamonaviy metod, ona tili, o‘yinli dars, ijodiy fikrlash, STEAM, vizual metod

Bugungi kunda ta‘lim zamon bilan hamnafas bo‘lishi, o‘quvchining hayotiy ehtiyojiga moslashgan, amaliyotga yo‘naltirilgan, faoliyatga asoslangan bo‘lishi talab etiladi. An‘anaviy dars uslublari faqat bilim berish bilan cheklangan bo‘lsa, hozirgi zamon darslarida o‘quvchi bilimni mustaqil izlaydi, tahlil qiladi, ijod qiladi, shaxsiy fikr bildiradi. Aynan ana shunday talablar asosida maqolamda ona tili fanidan “Sifat so‘z turkumini o‘rganishda zamonaviy metodlardan foydalanish”ga oid ish tajribamdan namunalar keltirishni lozim topdim. ”Rang va tuyg‘u” metodi (vizual-emosional yondashuv). Doskaga turli ranglar ilib qo‘yiladi. Har bir rangga mos sifatlarni o‘quvchilar topishadi, bu orqali sifatlarning emotsional rang-barangligi o‘rganiladi.

Qizilchaqqon, issiq, jazavali; ko‘k-salqin, sokin, chuqur; kulrang-xira, g‘amgin. O‘quvchilar bu metod orqali emotsional rang-baranglikni o‘rganadi. “Reklama yaratuvchilari” o‘yini. Bu o‘yin orqali o‘quvchilarni real hayotga yaqinlashtirish, sifat so‘zlarining ta‘sirchan nutqdagi rolini anglash mumkin. Guruhlar ma‘lum buyum yoki mahsulotga reklama yaratadi, lekin reklama matnida kamida 5 ta sifat bo‘lishi kerak. (Masalan: Bizning shirinliklar-yangi, yumshoq, tabiiy, shifobaxsh, yoqimli)

“Sifat yasovchilar” laboratoriyasi (soʻz yasash amaliyoti) . Oʻquvchilarga ot, feʼl va son beriladi, ular shu soʻzlardan sifat yasab, gapda ishlatishadi. Bahor-bahor+iy-bahoriy; doʻst-doʻst+ona-doʻstona; “Emoji bilan sifat top” (raqamli metod). Yozuv taxtasiga turli emojiilar joylashtiriladi.

- xushchaqchaq, mehribon, iliq, ishbilarmon, jiddiy, masʼuliyatli “

Sheʼr ichra sifatlar” metodi. Mashhur sheʼr matnlari ichidan sifatlarini ajratish, ularning taʼsir kuchini tahlil qilish topshiriladi. Nafis chayqaladi bir tup naʼmatak Mayin raqsiga hech qoniqmas koʻngil, Vahshiy toshlarga ham u berar fusun, Soʻnmaydi yuzida yorqin tabassum. (Nafis, mayin, vahshiy, yorqin) “Sifatli hikoya” topshirigʻi. Oʻquvchi sifatlar asosida kichik hikoya yozadi va darsda oʻqib beradi. Natijada yozma nutqda sifatlardan maqsadli foydalanishni oʻrganadi. Masalan: Yozgi tong iliq edi. Bolalar bexavotir, ochiq va samimiy tabassum bilan sayohatga chiqdi.

STEAM-integratsiya : “Sifatlar dunyosi” 3D loyihasi.

Bu metod orqali oʻquvchilarda kreativ fikrlash, jamoa bilan ishlash va fanlararo aloqa shakllanadi. Texnologiya darsi bilan integratsiyada oʻquvchilar “Sifatlar shaharchasi” ni loyihalashtiradi. Har bir uy, koʻcha, maktab va doʻkonlarning nomini sifatlar bilan nomlaydi. (Masalan, shovqinli maydon, sokin koʻcha, oq uy, katta maktab, arzon doʻkon).

“Ertak” metodi. “Belgilar mamlakati” ertagi Bir bor ekan, bir yoʻq ekan, qadim zamonda “Belgilar mamlakati” deb nomlangan sehrlil bir yurtda “Sifatlar oilasi” yashar ekan. Bu oila yurtdagi har bir narsaning qanday ekanini aytish uchun juda zarur boʻlgan eng dono oilalardan biri ekan. Bir kuni bu oila ichida katta yigʻin boʻlibdi. Sifatlar orasida 4 ta aka-uka ajralib chiqibdi. Ular oʻzini “Sifat darajalari” deb atar ekan. Ularning ismlari quyidagicha edi:

1. Oddiy daraja eng kichigi boʻlib, oddiy gapirardi.

-Men oddiyman, narsaning meʼyoriy holatini bildiraman.

Masalan, katta, shirin, goʻzal. Meni hech qanday qoʻshimchasiz yoki kuchaytiruvchi soʻzlarsiz ishlatishadi. U dedi:

”Mana bu katta kitob, bu esa shirin olma. Oddiy, ammo aniq!”

2. Qiyosiy daraja doim boshqa narsalar bilan solishtirishni yoqtirar edi.

- Men -roq qoʻshimchasi bilan paydo boʻlaman, dedi u.

-Meni “Kattaroq, shirinroq, ziyrakroq” deb aytishadi. Men ikki narsani solishtirib, qay biri koʻproq belgiga ega ekanini koʻrsataman.

U dedi:”Bu uy kattaroq ekan, u non esa yumshoqroq”.

3. Orttirma daraja ortiqcha, kuchli belgilarni bildiradi. U gapirganda har doim hayrat uygʻotadi:

-Meni juda, nihoyatda, eng, gʻirt, behad, gʻoyat kabi kuchli soʻzlar bilan ishlatishadi. Masalan, juda chiroyli, nihoyatda kuchli, eng baland.

U dedi: "Bu qiz juda aqlli , bu gul esa eng xushbo'y!"

4.Ozaytirma daraja esa har doim sal ohangdor gapirardi:

-Men ozgina farqni bildiraman.Odatda biroz ,sal, jindak degan so'zlar bilan ishlayman. Meni biroz katta, sal sovuq , jindak charchagan kabi ishlatishadi. U dedi:"Bugun havo biroz iliq , bu o'quvchi sal semiz". Bir kuni Sifatlar shohi bu to'rt aka-ukani sinovdan o'tkazmoqchi bo'ldi. Ular oldiga bitta olma qo'ydi va so'radi: - Shu olmani qanday ta'riflaysiz?

Oddiy daraja dedi: "Bu shirin olma".

Qiyosiy daraja dedi: "Bu olma shirinroqqa o'xshaydi,avvalgisi unchalik emas edi. Orttirma daraja dedi:"Yo'q, bu nihoyatda shirin olma!"

Ozaytirma daraja dedi: "Menga esa bu olma biroz shirindek tuyulyapti". Sifatlar shohi hayron bo'lib dedi: "Barakalla!Har biringiz bir olmani turlicha ta'rifladingiz. Shuning uchun sizlarni darsliklar podshosi deb e'lon qilaman! Shundan so'ng to'rt aka-uka barcha darsliklar, she'rlar, hikoyalar va nutqlarda faxr bilan xizmat qila boshladi.

"Ertak" metodini 5-6-sinf o'quvchilari uchun qo'llash maqsadga muvofiq.Bu metod murakkab grammatik tushunchalarni sodda , hayotiy obrazlar bilan tushuntirishga yordam beradi;o'quvchilarning nutq madaniyatini shakllantirib,ularni darsning faol ishtirokchisiga aylantiradi , tahliliy fikrlashga o'rgatadi; eslab qolish qobiliyatini kuchaytiradi va ta'lim sifatini oshiradi.

Sifat so'z turkumi — ona tilining eng obrazli, ifodali qatlamlaridan biri. Uni o'rganish jarayonini zamonaviy metodlar bilan uyg'unlashtirish darsni nafaqat samarali, balki hayotiy, qiziqarli va ilhomlantiruvchi qiladi. Har bir dars – o'quvchi qalbiga badiiylik, go'zallik, fikr tiniqligini olib kirishi kerak. Yangicha va zamonaviy ta'lim metodlari hamda didaktik o'yinlar-bu o'quvchilarni faollikka chorlovchi,hayotga tayyorlovchi, yangilikka ochiq shaxsni tarbiyalash yo'lidagi eng samarali vosita. Har bir pedagog darsda zamonaviy metod hamda o'yinlarni to'g'ri tanlasa va moslashtirsa, o'quvchilarda bilimga nisbatan ishtiyoq, izlanish va ijodkorlik shakllanadi. Bu esa o'z navbatida ta'lim sifatining oshishiga bevosita xizmat qiladi. Shunda til ham, dars ham – yashaydi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ona tili 6-sinflar uchun darslik/ K.M. Mavlonova [va boshqalar]-Toshkent, Respublika ta'lim markazi,2022-yil.

2. Ona tili 7-sinflar uchun darslik/ K.M. Mavlonova [va boshqalar]-Toshkent, Respublika ta'lim markazi,2022-yil.

3. G'ulomov N. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – T.: O'qituvchi, 2005.

4. Xolmatova M. Tilshunoslikda zamonaviy metodlar. – T.: Fan, 2021. 5. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)  
–O‘zbekiston ta’lim portali. 6.[https://uz.wikipedia/wiki/Ona\\_tili](https://uz.wikipedia/wiki/Ona_tili)